

AYRIM ISTIQBOLLI EFIR MOYLI O'SIMLIKLARNI YETISHTIRISH

¹Xusanov Navruzбек

Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari
ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti,

²Ismoilova Nafosat

O'zbekiston Milliy universiteti Biologiya fakulteti talabasi,

³Boboyev Sayfulla

O'zbekiston Milliy universiteti Genetika kafedrasini mudiri,

⁴Turabaev Akmal

O'zbekiston Milliy universiteti Ekologiya fakulteti professori

Tel: 97 311-48-95 e-mail: navruzbekxusanov@mail.ru.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7384770>

Hozirda respublikadamizda so'nggi yillarda efir moyli o'simliklarni muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish, efir moyli o'simliklar yetishtiriladigan plantasiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'simliklarning shifobaxsh xususiyatlari qadim zamonlardan ma'lum bo'lgan va ulardan turli kasalliklarni davolashda foydalanilgan. Buyuk ajdodlarimiz Abu Ali ibn Sino, Abu Bakr Ar Roziy, Abu Rayhon Beruniy bemorlarni dorivor o'simliklar bilan davolaganlar [1].

Respublikamiz florasini rang-barangdir. Unda 4500 dan ortiq o'simlik turlari qayd etilgan. Respublikamizda mavjud o'simliklarning 650 turi efir moyli, 700 dan ortig'i dorivor, 300 turi bo'yoqli, 400 xili oshlovchi, 200 turi ziravor, 180 xili oziq-ovqatbop, 100 xili saponinli ekanligi qayd etilgan [2,5].

O'simliklarning kimyoviy tarkibi murakkab va har xil bo'lishi mumkin. Deyarli barcha o'simliklarda uglevodlar, oqsil moddalar, yog'lardan tashqari, turli biologik faol moddalar ham uchraydi. Ularning kimyoviy tarkibidagi moddalar sintezini ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Birlamchi sintez moddalar – uglevodlar, oqsil moddalar, lipidlar (yog'lar), fermentlar va vi-taminlar.
2. Ikkilamchi sintez moddalar – alkaloidlar, glikozidlar, fenol birikmalari, efir moylari, smolalar, organik kislotalar va hokazolar [3].

Efir moylari haqida qisqacha to'xtalib o'tsak. Efir moylari tibbiyotda dori sifatida ichiladi yoki badanga surtiladi, shuningdek, in'eksiya qilinadi. Bundan tashqari, ba'zi dorilar aralashmasi tarkibiga kiradi. Efir moyi saqlovchi o'simlik-lardan tayyorlangan dori turlari ham tibbiyotda keng qo'llaniladi. Efir moylari farmasevtikada boshqa dorilarning ta'mi va hidini yaxshilash uchun qadimdan ishlatib kelinmoqda. Ko'pgina efir moylari bakterisid xossasiga ega bo'lganidan tish kasalliklarini davolashda va ingalyasiyada (nafas yo'llarini dezinfeksiya qilishda) qo'llaniladi. Xonalar (ko'pincha shifoxonalar) havosini yaxshilash uchun ham efir moylaridan foydalaniladi. Efir moylari ko'proq parfyumeriyada, kosmetikada, texnikada va oziq-ovkat sanoatida ishlatiladi.

Efir moylari, odatda, suv bug'i yordamida haydab olinadigan, o'ziga xos hid va ta'mga ega bo'lgan, uchuvchan organik birikmalar aralashmasidan iboratdir. O'rta asrlarda arablar suv bug'i yordamida o'simlik xomashyosidan efir moyini ajratib olishni yaxshi bilishgan.

Hozirgi kunga kelib efir moylarini ajratib olishning qulay va samarali texnologiyalari ishlab chiqilmoqda va bu yo'lda bir qator izlanish olib borilmoqda. Respublikamizda tabiiy sharo-itda o'sayotgan efir moyli o'simliklar populyasiyasi kamayib ketishining oldini olish maqsadida bir qator ishlar chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [6].

Hozirgi vaqtda dorivor o'simliklar mamlaka-timizning ixtisoslashgan fermer, o'rmon, dehqon va boshqa mulkchilik shaklidagi xo'jaliklarida yetishtirilmoqda. Lekin, ularni yetishtirish texnologiyalari mukammal ishlab chiqilmaganligi sababli, ayrim yechilishi lozim bo'lgan muammolar hams yuzaga kelmoqda. Shu bois ham farmasevtika sanoatini sifatli, tannarxi arzon va ekologik sof xomashyo bilan ta'minlash dolzarb vazifa-lardan biri bo'lib qolaveradi. Bu holat, albatta, dorivor o'simliklar xomashyosi yetishtirish bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklarni dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyalarini puxta egallagan mutaxassislar bilan ta'minlashni taqazo qila-di. Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi qish loq xo'jaligining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, farmasevtika sanoati

hamda dorixo-nalarni sifatli shifobaxsh o'simliklar xomashyosi bilan ta'minlashda asos bo'lib xizmat qiladi [4].

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Холматов Ҳ.Х., Ҳабибов З.Ҳ. “Ўзбекистоннинг шифобхш ўсимликлари”, “Медицина” нашриёти, Тошкент – 1976 й. б-3.
2. Хожиматов Қ. “Ўсимликлар ҳаёт манбаи” Халқ сўзи, 2000 йил 25 май.
3. Ибрагимов А.Я. “Шифобахш неъматлар”, “Наврўз” нашриёти, Тошкент-2016й. б-19-23.
4. Тўхтаев Б.Ё, Ахмедов Э.Т, Туракулов А, Назаров Ғ. “Доривор ўсимликларни етиштиришнинг инновацион технологиялари”
5. По данным сайта GRIN (см. карточку растения).
6. Атлас лекарственных растений СССР / Гл. ред. Н. В. Цицин. — М.: Медгиз, 1962. — С. 42. — 702 с.

Интернет сайтлар

- www.nature.uz
- www.ziyonet.uz